

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM VA TARBIYAVIY ISH YO'NALISHI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

«UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI» FANIDAN

**«DEMOKRATIK JAMIYATDA O'QITUVCHI SHAXSI»
MAVZUSIDAGI**

KURS ISHI

Bajaruvchi: 1-bosqich talabasi Kasimova S.

Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov

Kurs ishi pedagogika kafedrasida bajarildi.

Kafedra mudiri:

dots. A.Abdumannotov

Kurs ishi kafedraning 2013-yil ___ maydagi majlisida himoya qilindi va
_____ foizga baholandi.

Komissiya raisi:

A'zolari:

SAMARQAND – 2013

REJA

KIRISH. ASOSIY QISM

- 1 O'qituvchi shaxsi va uning jamiyatda tutgan o'rni. Uzluksiz ta'lim tizimida
2. O'qituvchi shaxsining shakllanishi va ularga qo'yiladigan talablar
- 3 Zamonaviy pedagogning innovasion faoliyatining modeli, uning rivojlanish istiqbollari
- 4 Zamonaviy pedagogning professional potentsiali va ularga qo'yilgan talablar

III. XULOSA

IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Kadrlar Tayyorlash Milliy dasturining maqsadi ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mustaqil O'zbekistonda yoshlarning tutgan o'rnini alohida ta'kidlab, har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishishlari o'zlariga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak", - degan edilar. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida 2010 yilning "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilingani munosabati bilan unda quyidagilar asosiy vazifalar belgilab olindi:

1. Tayyorlanayotgan mutaxassislarga real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi mavjud talabga alohida e'tibor qaratgan holda, o'sib kelayotgan avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasidagi moddiy-texnika bazani yanada mustahkamlash, undan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish;

Ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikasiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediy va vositalarini keng joriy etish orqali

mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar kollejlari, liseylari va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini zamonaviy turdagi o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha samarali tizimni yanada rivojlantirish;

Ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyali yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 9 dekabrda 3329-Farmoyishiga binoan tuzilgan Respublika komissiyasiga "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi bajarilishini tashkil etish va uning ijrosi monitoringini amalga oshirish vazifasi yuklandi.

Pedagoglik ixtisosligini tanlagan har bir inson kimlarni o'qitayotgani va tarbiyalayotganligi uchun o'ziga katta mas'uliyat va javobgarlikni oladi. U o'zining kasbiy tayyorgarligiga javob berishi bilan birga, pedagog, o'qituvchi, tarbiyachi, muallim sifatida o'z zimmasiga ko'plab majburiyatlarni olishi zarur.

Ishning maqsadi: O'zbekiston Respublikasi «Barkamol avlod» dasturi talablariga binoan zamonaviy pedagogika fani o'qituvchisining kasbiy salohiyatini takomillashtirishni hamda unga qo'yiladigan talablarni ilmiy–nazariy tahlil qilishdan iborat.

Ishning vazifalari:

1. Zamonaviy pedagoglarning shakllanishini, jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ifodalash.
2. Zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida yosh pedagoglarning rivojlanish istiqbollari o'rganish.
3. Yosh pedagogning professional potensialini takomillashtirishni nazariy bayon etish.

Ishning metodologik asoslari: Davlatimizning ta'lim sohasidagi qarorlari,

Prezidentimiz I.A.Karimovning Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli nutqi, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi, «Pedagogika» va «Pedagogik mahorat» faniga oid darslik va qo'llanmalar.

ASOSIY QISM:

1. O'qituvchi shaxsi va uning jamiyatda tutgan o'rni

Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakkirlari hamda G'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi. Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- 1) bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- 2) berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- 3) ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- 4) talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- 5) fanga qiziqтира olishi;
- 6) berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- 7) bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- 8) har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish¹.

Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, «mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'ovg'a yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. ... Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir»².

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o'rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta'kidlab, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdir»², - deydi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o'qituvchilik «yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, pedagog o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarning namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligiga urg'u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqod.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi fikrni ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

1.2. O'qituvchi shaxsining shakllanishi va ularga qo'yiladigan talablar

O'qituvchilik kasbining sharafliligi, nafaqat, uning o'qituvchi, turli bilimlarni o'rgatuvchi va mohir tarbiyachi bo'lganligi uchungina emas, balki uning o'zi tanlagan oliy o'quv yurtidagi barcha mutaxassisliklar bo'yicha maxsus fanlarni va ularning poydevori bo'lgan fundamental fanlarni hamda o'qitish va tarbiya berishni, psixologiya va pedagogika asoslarini a'lo darajada egallagan bo'lishi shart.

Shu bilan birga o'z kasbining ustasi bo'lgan muallim turli darajadagi bilimga, xohish va irodaga hamda tarbiyaga ega bo'lgan talabalarni ajoyib san'atkor kabi o'ziga ergashtira olishi zarur. Bunday kasbiy pedagogik xususiyatga ega bo'lgan muallim o'ziga quyidagi majburiyatlarni olishi kerak: **Birinchi**dan, yosh pedagog, tarbiyachi kelajakdagi pedagoglik faoliyati uchun o'zining imkoniyatlarini baholashi, o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishi, kasbiy pedagogik tayyorgarlik davrida qanday kasbiy zaruriy sifatlarni shakllantirish kerakligini va yana qandaylarini mustaqil pedagogik jarayonda shakllantirishi kerakligini bilishi lozim. **Ikkinchi**dan, yosh pedagog intellektual faoliyatining umumiy tomonlari (tafakkur, xotira, qabul qila olishi, ko'z oldiga keltirishi, e'tibori)ni hulq-atvor madaniyati va shu jumladan, pedagogik aloqani egallagan bo'lishi shart. **Uchinchi**dan, pedagog uchun majburiy dastlabki shart-sharoit muvaffaqiyatli faoliyati asosi bo'lgan o'quvchini o'zining tengquri deb qarashi va uning hulq-atvori o'zaro aloqasidagi qonun-qoidalarini bilishi kerak. Pedagog, tarbiyachi va tarbiyalanuvchini, uning barcha xususiyatlaridan qat'iy nazar, bilishi va qabul qilishi shart. **To'rtinchi**dan, pedagog nafaqat talabalar o'qish faoliyatining tashkilotchisi va o'qish jarayonini tashkil etuvchilarning o'zaro aloqasini ilhomlantiruvchi bo'lib xizmat qilishi bilan birga ma'lum ma'noda bilim, tarbiya berishi va demak, umumiy maqsadlarga erishishda ularning do'sti sifatida qatnashishi zarur. Bu esa talabalar oldida doimo o'zlarining tashkilotchilik, kommunikativ xususiyatlarini pedagogik-psixologik bilimlarni o'zlashtirish jarayonida rivojlantirib borishlarini va ulardan pedagogik amaliyotlarida samarali foydalanishga intilishlarini yuzaga keltiradi. Pedagoglar uchun ham Gippokrat qasamini taalluqli deb qaralsa, uni quyidagicha izohlash mumkin. Talabadagi insoniylik va shaxslikni hurmat qilish, o'zingizga qanday munosabatda bo'lishlarini xohlasangiz, ularga ham shunday munosabatda bo'ling:

1. Doimo o'zingizni rivojlanish va o'sishga, o'qishga undang, zero, kimki o'zi bilmasa, boshqalarda o'qishga ishtiyoq tug'dira olmaydi.

2. Talabalarga bilimni shunday beringki, toki, ular o'zlashtirishni xohlasin va o'zlashtirsin.

3. O'qitishning maqsadi faqat talabaga ma'lum bilimlarni berishdan iborat bo'lmay, ularda mustaqil va o'qituvchi yordamisiz yuqori cho'qqilarni egallash malakalarini yaratishdan iborat.

Respublikadagi barcha ixtisosliklardan 86 yo'nalish uchun kasbiy pedagog bakalavrlar va pedagog magistrnlarni tayyorlash amalga oshirilmogda, bu yo'nalishlarda tayyorlanayotgan pedagog bakalavrlar asosan akademik-liseylar va

kasb-hunar kollejlari uchun mo'ljallangan bo'lsa, shuncha miqdordagi pedagog magistrlar mos ravishdagi oliy o'quv yurtlari uchun pedagog o'qituvchilardan iborat bo'lmoqda.

Hozir dunyoning barcha mamlakatlari asosan uzluksizlikni tashkil etuvchi yangi ta'lim tizimini ishlab chiqish fikridadirlar.

Ta'lim va uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanishi pedagoglik kasbining yetarlicha o'zgarishiga olib keladi. O'qitish va tarbiya jarayonidagi mutaxassislar sonining uzluksiz ortishi yuzaga keladi. Bu hol pedagoglik kasbining nafaqat keskin ortishiga va turlarining ko'payishiga olib keladi.

XXI asr talabiga ko'ra, o'qituvchilarni tayyorlash tizimini zamonaviylashtirishning umumiy tomonlari:

-o'qituvchilarning asosiy qismini oliy ta'lim, universitetlar tayyorlay boshladi, bu esa o'qituvchilar kasbini boshqa mutaxassislar darajasiga ko'tarib, ularning jamiyatdagi rolini oshirishga olib keladi;

-pedagogik ta'limning ko'p sathli va variantligiga o'qituvchilar va boshqa mutaxassislar turli davomiylikda tayyorlana boshlandi (bakalavr, mutaxassis, magistr);

-pedagogik ta'limda umumta'lim qismlarini kuchaytirish. O'qituvchi o'zining murakkablashgan funksiyalarini bajarish uchun ko'p tomonlama va yuqori bilimli, ruhan boy, inson tabiatini o'tkir sezuvchi inson bo'lishi shart.

-boshqa yo'nalishdagi mutaxassislarni ham o'qituvchilikka tayyorlash va hokazo. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'ymoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak»1.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta'lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi-bakalavr qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatini o'qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarini ifodalaydi):

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimikka, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaliligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kanselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin,

kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

2. Zamonaviy pedagogning innovasion faoliyati modeli, uning rivojlanish istiqbollari

XXI asr insonlar orasidagi buyuk munosabatlar rivojlangan, ya'ni o'zlarining jismoniy va ma'naviy kuchlarini ifodalovchi insoniylik qarashlari rivojlangan asrdir. Insonparvarlik, tafakkurning o'rnatilishi o'qituvchi va o'quvchi orasidagi yangi turdagi o'zaro munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Yosh o'qituvchining innovasion faoliyati modeli

Innovasion pedagogik faoliyatning muhim sharti, predmetga yo'naltirilgan o'quv faoliyatini shaxsga yo'naltirilgan o'quv faoliyatiga aylantirilayotgan sharoitlarda bo'lajak o'qituvchini tayyorlash modelini ishlab chiqish hisoblanadi.

Model (Modele, lotincha modulus-o'lchov, namuna) innovasion pedagogik faoliyat modeli tushunchasi asosi qilib o'qituvchining faoliyati jarayoni sxemasini tushunishini olinadi.

Ushbu muammo bo'yicha adabiyotlarni o'rganish ko'pchilik olimlar bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash modeli deganda mutaxassislarning modelini va uning faoliyatini yoki tayyorlash modelini tushunishlarini ko'rsatadi. Ye.E.Smirnov "Mutaxassis modelini" ushbu kasbda mavjud bo'lgan sharoitlar bilan ifodalanadigan uning faoliyati analogi deb hisoblaydi. Tadqiqotchilar shaxsga yo'naltirilgan yondashishda quyidagi xususiyatlarni ajratib oladilar:

-Pedagogik innovasiyalarning maqsadlari-pedagogik jarayonning hamma subyektlarini shaxsiy rivojlantirish. Innovasion jarayonda pedagogning tutgan o'rni

o'zgarishi kerak. O'qituvchi bilimlarini yetkazib beruvchi emas, balki o'quvchi shaxsining tashkil topishi va rivojlanishida yordamchi sifatida ishtirok etadi.

-O'quv jarayonini tashkil etish xarakteri. O'zlashtirish jarayoni eskicha yodlab olish xususiyatlarini yo'qotib, o'quv jarayoni subyektlarining o'zaro aloqalari va fikrlash faoliyatlarini turli shakllarida sodir bo'ladi.

-Mustaqil o'rganish faoliyatini baholash.

-Yangi pedagogik tajribalarni o'zlashtirish.

-Ta'limning o'zgarayotgan mazmuni va maqsadlarini mos ravishda bilimlarni, malaka va ko'nikmalarni egallash bo'yicha maxsus ishlar.

Bunday munosabatlarning xarakterli tomonlari:

-ta'lim berish va tarbiyada shaxsga yo'naltirilgan yo'lni amalga oshirish;

-asta-sekin guruhli o'zaro aloqadan individual aloqaga o'tish;

-o'quvchilarga qo'yiladigan to'g'ridan-to'g'ri pedagogik talablardan maslahat, iltimos va takliflarga o'ta borish;

-o'quvchilar bilan bo'ladigan ish munosabatlarning his-tuyg'uga o'ta boshlashi;

-kommunikativ ish faoliyatining doimo nazoratda bo'lishi;

-o'quvchiga uning rivojlanishidagi yordamni insoniy va madaniy munosabatlarni tarbiyalash orqali vujudga keltirish.

Hozirgi zamon ilmiy-texnik inqilob bosqichining xarakterli xusu-siyatlaridan biri jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompyuter-lashtirishdan iboratligi kasbiy va shu qatorda pedagogik faoliyatning tarkibini keskin o'zgartirishni keltirib chiqaradi. Ta'lim tizimi barcha bo'g'inlarining axborot texnologiyalaridan foydalanishi ta'limning axborotlashuvida kundalik talabni keltirib chiqaradi, bu esa, o'z navbatida, texnika oliy o'quv yurtining bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchisidan yangi axborotlar muhitida bemalol ishlay oluvchi ko'nikmalarni o'zlashtirishni talab etadi.

Umumlashgan holda yosh o'qituvchi salohiyatini oshirishida uning shaxsiga qo'yiladigan asosiy talablar: **kasbiy bilimdonlik, ziyolilik, ma'naviy barkamollik, ijodkorlik, madaniyatlilik, qat'iyatlilik, uddaburonlik.**

Hozirgi davrda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish keskin kuchayganligi uchun ham o'qituvchiga va ham o'quvchiga juda katta va turli-tuman axborot texnologiyalari bilan ishlashga to'g'ri kelganligidan ularning asosiylarini yuksak bilim va aql-idrok bilan ajratib olish zarur. Shuning uchun o'qituvchilar mehnati va bilimni tashkil qilish uchun quyidagilar zarur:

1. Bo'lajak pedagogning birgina axborot texnologiyalari muhitida ishlashga tayyorgarligini tashkil etish. Bu muammoni axborot texnologiyalarini bilish va ulardan o'quv jarayonida foydalanish ma'nosida qarash mumkin.

2. Pedagogning fikrini jamlash, vaqtini tejash hamda o'qitish metodikasini tashkil etishga imkon beruvchi yagona axborot tizimiga yaqinlashtirish.

3. Axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'lim berishga tayyorlanish va unga o'tish. Bunday o'tish o'quv kurslarini axborotli-kompyuterli holga o'tkazishni ko'zda tutadi.

4. Birlashgan axborot hajmidagi o'quv jarayonining dasturiy-metodik ta'minlanishini tayyorlash.

Shunday qilib, universitetning bo'lajak pedagoglari aniq fanlarni o'qitishda kompyuterdan foydalanish malakalarini oshirishi va bilishi zarur.

Ta'limdagi xalqaro tendensiyalarning, xususan kasbiy pedagogikadagi, tahlili o'qituvchining ham kasbga oid va ham shaxsiy sifatiga nisbatan talablarning keskin ortishiga olib kelmoqda:

A) ta'lim sifatining o'qituvchi kasbiy bilimdonligi yuqorilashib borishi zarurligini ko'rsatadi;

B) o'qituvchilarga ko'plab ilmiy va ijodiy masalalarni qo'yish va yechishlariga to'g'ri kelmokda, bu esa o'qituvchining ilmiy va ijodiy xususiyatlari ortib borishiga olib keladi. Shunday qilib, kelajak o'qituvchining uzluksiz ijodiy shaxsga aylanishi zarurligini ko'rsatadi;

V) murakkablashib borayotgan tarbiya o'qituvchidan yuqori darajadagi ziyolilikni va ruhiy -ma'naviy xulqining ortib borishini talab qilmoqda.

G) XXI asr o'qituvchidan o'qitish va tarbiyaning ilg'or texnologiyalaridan va ajdodlarimiz bitiklaridan doimo foydalana borishini talab qilmokda.

Ma'lumki, yosh pedagogning mohir pedagog bo'lib rivojlanishida buyuk allomalarning fikrlari katta ahamiyatga ega:

Beruniy ta'lim-tarbiya sohasida o'sha zamonlarda, hatto hozirgi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan fikrlarni ilgari suradi. U ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchini zeriktirmaslik, bilim berishda bir xil narsa yoki bitta usulda o'rgatavermaslik, uzviylik, izchillik asosida, mavzularni qiziqarli asoslab, ko'rgazmali bayon etish va shunga o'xshash narsalarga e'tibor berish lozimligini uqtirgan.

Beruniy ta'kidlashicha, inson kamolotida uch narsa muhimdir, bu-hozirgi ma'rifat, ilm-fanni e'tirof qiluvchi-irsiyat, ijtimoiy muhit va to'g'ri tarbiyadir. Yana u inson kamolga yetishi uchun eng muhim omil-muallimning ilm-ma'rifatli bo'lishi bilan birga yuksak axloqli bo'lishi ham kerakligini e'tirof etadi.

Ibn Sino boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini falsafiy, ijtimoiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalab, maxsus risolalarda talqin etgan.

Ibn Sino inson kamolotining bosh mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Ilm-fanning tabiat va jamiyat qonuniyatlarini ochib, avlodlarga yetkazishini e'tirof etib, bu maqsadga yetishish uchun qiyinchiliklardan qo'rqmaslik zarurligini ta'kidlaydi.

Ta'lim oluvchilarga bilim berish o'qituvchilarning mas'uliyatli burchidir. Ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritib, shunday yo'l-yo'riqlar beradi;

-bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;

-berilayotgan bilimni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;

- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabalarning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish.;
- fanga qiziqira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'ota olish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

Mirzo Ulug'bekning fikricha, bolalarning bilim olishni istamasligi mudarrisning nodonligidandir, chunki bunday tarbiyachilar ta'lim usullarini noto'g'ri qo'llash bilan bolalarning bilimga qiziqishini so'ndiradi. Mudarris avval o'zini tarbiyalashi, bilim va malakalarini chuqur egallashi, o'z ustida tinmay ishlashi, bilimlarini takomillashtirib borishi lozimligini e'tirof etib, beriladigan bilimlarning yuqori saviyada bo'lishiga e'tibor berishga da'vat etadi.

Shuningdek, Ulug'bek darsliklar qanchalik mazmunli bo'lmasin, ta'limda o'qituvchi asosiy o'rinda turishini, u o'z pedagogik mahorati va yaxshi fazilatlari bilan o'quvchilarga namuna bo'lishi, yaxshi tarbiya ko'rgan, chuqur bilimli va ma'rifatparvar inson bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Ulug'bekning o'zi Samarqand madrasalarida ana shunday fazilatli ustoz sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Ulug'bekning fikricha, bolaning bilim olishga qiziqishini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rin egallaydi. Oilada ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib yetishishlariga e'tibor berishlari lozim, deydi.

Shu kabi ibratli fikrlar yosh o'qituvchining professional darajasida shakllanishiga yordam beradi.

Yosh mutaxassis tajribali novator pedagog sifatida o'z mavqeiga ega bo'lishida pedagogik mahorat asoslari fanining yutuqlariga tayanishi lozim.

2.2. Zamonaviy pedagogning professional potentsiali va ularga qo'yilgan talablar

“O'z shogirdlarida mehnatdan zavqlanish xislatlarini uyg'ota bilgan muallim sharaflarga loyiqdir”.

Ye. Xabbard.

Oliy o'quv yurtlarida yoki boshqa o'quv muassasalarida turli xil darajali mutaxassislarni uchratish mumkin. Ular o'z fani va sohasi bo'yicha oliy mutaxassis, kuchli bilimdon bo'lishi mumkin, lekin pedagogik mahorat, ya'ni o'z bilimini yetkaza olish, tushuntira bilish, o'qitish uslubi, talabalarning ruhiy xususiyatlarini bilish, pedagogik takt va pedagogik texnika kabilarga ega bo'lmasligi mumkin. **Pedagogik mahorat** – bu pedagogik faoliyat muvaffaqiyatini aniqlovchi professional xislatlar tizimidir.

Inson hayoti uchun eng kuchli javobgar bo'lgan kasb – bu pedagoglik kasbidir. Shifokorning birgina xatosi bir inson hayotiga ta'sir ko'rsatadi, lekin pedagogning birgina xatosi ko'plab yoshlarning hayotida salbiy asorat qoldirishi mumkin. Chunki u yoshlarning ongini to'g'ri rivojlantirishi, bo'lajak shaxsiga xos bo'lgan fazilatlarni tarkib toptirishi, ularda umid va ishonchni uyg'otishi, kelajagini to'g'ri tashkillashtirishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi.

Pedagog – bu maxsus tayyorgarlik ko'rgan va pedagogik faoliyat bilan professional shug'ullanadigan inson. Noprofessional pedagogik faoliyat bilan deyarli hamma insonlar shug'ullanadi, lekin aynan pedagog nimani, nima uchun, qanday qilib, qayerda va qachon bajarishni biladi. U o'z kasbining maqsad-vazifalari uchun kuchli javobgar. Pedagog har bir, yosh avlod, jamiyat taqdiri va kelajagi uchun javobgarligi bilan farqlanadi. **Pedagog mehnatining natijasiga qarab kelajak belgilanadi.**

Inson o'zini tanibdiki, u bilan birga o'qituvchi ham bor. Har bir inson taqdiri u bilan bog'liq, uning qo'lidan o'tgan. Qadimda bu kasb ilohiy sanalgan. Hozirda bu hammabop kasb hisoblanadi. “Nemis xalqini haqiqiy nemis xalq o'qituvchilari tarbiyalagan” degan edi O.Bismark. O'qituvchi qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. O'qituvchi artist, san'atkor, ta'lim oluvchilarni va o'z ishini sevuvchi, uni jondili bilan bajaruvchi bo'lishi kerak. Insonlar har doim ularga nisbatan qattiq talab qo'yishgan.

Mutaxassis pedagogning asosiy vazifalari.

1. Pedagogik vaziyatlarni o'rganish va o'zlashtirish.
2. Pedagogik maqsad va vazifalarni aniqlash.
3. O'quv materialini mazmuni ustida ishlash
4. Axborotlarni pedagogik tahlil qilish
5. Talabalarda o'quv hamda ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.
6. Talabalarning ruhiy funksiyalari va holatlarini o'rganish
7. Talabalarning o'qish motivatsiyalarini rivojlantirish.
8. Ta'lim-tarbiya usullari va shakllaridan foydalanishni bilish.

9. O'z pedagogik faoliyatini rivojlantirish rejasini yaratish.

10. Muloqotda psixologik havfsizlik sharoitlarini yaratish.

O'qishga bo'lgan qiziqish nafaqat o'qishdagi qiyinchiliklarga bog'liq, balki pedagogning talabalarga bo'lgan munosabatidan ham kelib chiqadi. (Pedagog – predmet – talaba). Pedagog va talabaning munosabatidan predmetni qanday o'zlashtirish natijasi kelib chiqadi. Matematika o'qituvchisini yoqtirmagan ta'lim oluvchi matematika fanini hech qachon samarali o'zlashtirmaydi. Adabiyot o'qituvchisini tushunmay turib san'atni sevib bo'lmaydi. O'qitish jarayonida emosionallik va hissiyotlar ham muhim. Bu bilan ilmni to'ldirib bo'lmaydi, lekin uning yordamida oson, tushunarli va tez idrok qilinadigan jarayonni yaratish mumkin.

Pedagogik muloqot pedagogik jarayonda o'z vazifalari va rollarini bajaradi. Pedagogik muloqot va boshqarish usullari ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi va shaxs rivojlanishini belgilaydi.

Avtoritar usul. Bu usul qattiqqullik, o'ta talabchanlik, majburlash bilan boshqarish va nazorat qilishdan iborat. Buyruq, ko'rsatma berish, jazolash va ogohlantirishdan ko'proq foydalaniladi. Talabalarga, ularning mustaqil faoliyatiga, mas'uliyatiga ishonchsizlik bilan ifodalanadi. Avtoritar pedagog har bir tashabbusni o'zboshimchalik deb hisoblab, uni qat'iy inkor etadi. Chunki tashabbus va mustaqillik uning avtoritetiga va o'ziga nisbatan ishonchiga salbiy ta'sir qiladi. Bu usul talabada qo'rquv, irodasizlik, qat'iyatsizlik, himoyasizlik hissini va o'ziga past baho berishni keltirib chiqaradi. Pedagog o'z obro'-e'tiborini juda yuqori tutadi, talabalardan uzoqroq bo'lishga intiladi (o'zaro munosabatda distansiya saqlaydi). U talabalarga ta'sir qilish kerak bo'lgan obyekt sifatida qaraydi. Talablarining bajarilishini qattiq nazorat qiladi. O'z huquqlaridan kuchli foydalangan holda vaziyatlarni o'zi hal qiladi, o'zi qaror chiqaradi va faoliyatni o'zi belgilaydi. Bunda talabalarining bor kuchi, diqqat-e'tibori bilim egallab, rivojlanishga emas, balki o'zini psixologik himoya qilishga qaratiladi. Muloqotda talabalarni tanlaydi, ularning bilimi va yutuqlarini past baholashga moyil. Bu bilan u ta'lim-tarbiya maqsadlariga erishmoqchi bo'ladi, lekin buning aksi bo'lib, talabalarda o'ziga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ladi, faqat pedagog nazorati va talabi ostidagina faollashadilar. Bu usulning birgina afzalligi tartib va mas'uliyat (majburiyat ostida bo'lsa ham) yuzaga kelishidir.

Demokratik usul. Pedagog talaba bilan muloqotda talabaga teng huquqli hamkor sifatida qaraydi. Guruh bilan birgalikda ishlaydi. Talabalar bilan muloqotda hammaga teng, ularni kuchli va kuchsizlarga ajratmaydi. Talabalarining mustaqil fikri va faoliyatini, tashabbusini rivojlantiradi va rag'batlantiradi. Talabaning faqat o'zlashtirishini emas, balki uning shaxsi, ruhiy holati, faoliyati, individual sifatlarini ham inobatga oladi. Bu usulning asosiy xususiyati – guruhning faol ishtiroki, o'zaro yordam va umumiy yutuqlardan faxrlanishga imkoniyat yaratiladi. Bu usul talabalarda psixologik qoniqish hissini, o'z qadr-qimmatini va o'ziga nisbatan ishonch tuyg'usini hosil qiladi. Natijada o'quv faoliyatiga bo'lgan ichki ijobiy motivasiya, qiziqish va mas'uliyat rivojlanadi.

Liberal usul. Pedagog pedagogik jarayon uchun javobgarlik va mas'uliyatdan qochadi. O'ta beparvolik, kechiruvchanlik, ko'ngilchanlik, qat'iyatsizlik va ikkilanishni namoyon qiladi. Talabalarga o'ta erkinlik va mustaqillik muhitini yaratib beradi. Ularning istak-xohishlariga beriladi, o'zi faollik ko'rsatmaydi. Asosiy o'quv faoliyatini amalga oshirishni, qaror chiqarishni talabalar ihtiyoriga qo'yib beradi. Pedagog guruhni birlashtirmaydi, ichki nizolarni bartaraf etolmaydi. Natijada guruhda tartibsizlik, dangasalik, faoliyatsizlik va mas'uliyatsizlik kelib chiqadi. O'quv vazifalari kam bajariladi, sifat va natija qoniqarsiz bo'ladi. Bu usul mustaqil rivojlanish malakasi mavjud talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'l keladi. Shu sababli bu usulni guruhga nisbatan emas, balki ayrim talabalar shaxsiga nisbatan qo'llash lozim.

Bu usullarning barchasi o'z afzallik va kamchiliklariga ega. Shuning uchun ulardan o'z vaqtida, talabaning shaxsiy-individual xususiyatlarini hisobga olib, sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogning javobgarligi juda yuqori, shu sababli pedagogik faoliyat bilan qobiliyatli va iqtidorli insonlargina shug'ullanishi lozim. Mutaxassislarining aytishicha, qobiliyatning mavjud emasligini boshqa muhim sifatlar – mehnatsevarlik, o'z ishiga mas'uliyat, o'z ustida doimiy ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish va faollik bilan to'ldirish mumkin. Shuning uchun pedagogning muhim professional sifatleri – mehnatsevarlik, ishga layoqat, tartiblilik, mas'uliyat, javobgarlik, qat'iyatlik, o'z mehnat sifatini doimiy oshirib borishga intilish va h.k.lardir.

Zamonaviy pedagogga qo'yiladigan birinchi talab - bu pedagogik qobiliyatlarning mavjud bo'lishidir.

1. **Tashkilotchilik qobiliyati** – talabalarni birlashtirish, vazifalar bilan band qilish, javobgarlikni taqsimlash, umumiy topshiriqlar bajarishda ko'rinadi.
2. **Didaktik qobiliyati** – o'quv materialini, ko'rgazmalarni tanlash va tayyorlash, talabalarning bilishga nisbatan qiziqish va ehtiyojlarini rag'batlantirish, o'quv faolligini oshirishda namoyon bo'ladi.
3. **Perseptiv qobiliyati** – talabaning ma'naviy dunyosiga kira olish, ruhiy-emosional holatini aniqlash va obyektiv baholay olish, pedagogik intuisiya va empatiyada ko'rinadi.
4. **Kommunikativ qobiliyati** – talabalar, hamkasblar va rahbariyat bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabat o'rnatish, muloqotga tez kirishish, ekstrovertlikda namoyon bo'ladi.
5. **Suggestiv qobiliyati** – talabalarga emosional irodaviy ta'sir ko'rsatish, ularni o'z imkoniyatlariga ishonтира olishda ko'rinadi.
6. **Ilmiy-tadqiqotchilik qobiliyati** – pedagogik vaziyat va jarayonlarni o'rganish va baholash malakalari tushuniladi.
7. **Nutq qobiliyati** – aniq va ishonchli, emosiyali, madaniyatli, lug'atij jihatdan boy nutq texnikasiga ega bo'lish.

O'quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogning insoniy xislatlari alohida muhimlik kasb etadi. Bu xislatlar qatoriga insoniylik, adolatlilik, mehribonlik, sabr-bardosh,

to'g'rilik, haqiqatgo'ylik, javobgarlik, adolatlilik, majburiylik, obyektivlik, sahiylik, insonlarga bo'lgan muhabbat, hurmat, yuqori ma'naviyatlilik, optimizm, emosional vazminlik, muloqotga bo'lgan ehtiyoj, tarbiyalanuvchilar hayotiga bo'lgan qiziqish, olijanoblik, o'z-o'zini tanqid qilish, do'stsevarlik, vazminlik, qadr-qimmat, vatanparvarlik, diniy e'tiqod, prinsipiiallik, emosional madaniyat va boshqalar kiradi.

M u k a m m a l p e d a g o g		
Mutaxassis	Ishchi-xodim	Inson
<input type="checkbox"/> Pedagogik nazariyani, qonuniyatlarni bilish <input type="checkbox"/> Ta'lim jarayonining psixologik xususiyatlarini bilish <input type="checkbox"/> Ta'lim-tarbiya texnologiyalarini egallash <input type="checkbox"/> Kasbiga va sohasiga bo'lgan muhabbat <input type="checkbox"/> Talabalarga bo'lgan muhabbat va ishonch <input type="checkbox"/> Pedagogik mahorat va qobiliyatga ega bo'lish <input type="checkbox"/> Umumiy erudisiya <input type="checkbox"/> Optimizm <input type="checkbox"/> Tez va aniq ta'sir ko'rsata olish <input type="checkbox"/> Emosional vazminlik, bosiqlik <input type="checkbox"/> Ishbilarmonlik <input type="checkbox"/> Nutqining aniq va ishonchli bo'lishi <input type="checkbox"/> Talabchanlik <input type="checkbox"/> Tashkiliy malakalar <input type="checkbox"/> Muloqot o'rnata olish <input type="checkbox"/> Eshitish malakasi	<input type="checkbox"/> Aniq maqsad qo'yish va unga erishish malakasi <input type="checkbox"/> Vaqtni taqsimlay olish malakasi <input type="checkbox"/> Mehnat samarasini oshirishga bo'lgan ehtiyoj <input type="checkbox"/> Ijod qila olish qobiliyati <input type="checkbox"/> Doimiy ravishda malaka oshirish <input type="checkbox"/> Ishga, meh <input type="checkbox"/> natga va faoliyatga bo'lgan ehtiyoj <input type="checkbox"/> Jamoada ishlay olish malakasi <input type="checkbox"/> Qat'iyatlilik <input type="checkbox"/> Intizomlilik <input type="checkbox"/> Mas'uliyat <input type="checkbox"/> Faollik <input type="checkbox"/> Javobgarlik <input type="checkbox"/> Tetiklik	<input type="checkbox"/> Yuqori ma'naviy sifatlarga ega bo'lish <input type="checkbox"/> Ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish <input type="checkbox"/> Faol hayotiy nuqtai-nazarga ega bo'lish <input type="checkbox"/> Hammaga va hamma narsada namuna bo'lish <input type="checkbox"/> Milliy g'urur <input type="checkbox"/> Sog'lom turmush tarzi <input type="checkbox"/> Insoniylik va insonparvarlik <input type="checkbox"/> Diniy e'tiqod <input type="checkbox"/> Muloqotga bo'lgan ehtiyoj <input type="checkbox"/> Samimiylik <input type="checkbox"/> O'z harakatlariga obyektiv tanqidiy munosabatda bo'lish

Talabalarga quyidagilarni o'rgatish zarur:

- O'z-o'zini hurmat qilish qancha yuqori bo'lsa, o'qish natijalari ham shuncha yaxshi bo'ladi.
- O'qishdagi muvaffaqiyatlar o'quv jarayonini tezlashtiradi.
- O'qishdagi muvaffaqiyatsizliklar esa o'qishni tashlash istagini paydo qilishi

mumkin.

- Xushchaqchaqlik va qiziqish sezgilari o'qishni osonlashtiradi.

Pedagog quyidagilarga e'tibor berishi zarur:

- Pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasida to'g'ri uslubdagi munosabatlarga amal qilish.
- O'qishida qiyinchiliklar sodir bo'lgan talabalarni maqtash;
- Ijobiy qaytuvchan aloqani ushlab turish;
- O'quv materialini turli xil uslublar bilan tushuntirish to'g'risida qayg'urish.

Quyidagi maslahatlar doimo muhimdir:

- Talabalarni astoydil o'qishga o'rgatish, ularda tirishqoqlikni, kuchli irodani, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalash;
- Nihoyatda qiyin topshiriqlarning hal etilishini rag'batlantirish;
- Maqsad, vazifa, hisobot shakli, baholash mezonini aniq belgilashga o'rgatish;
- Burch va javobgarlik hissini shakllantirish;
- Eng avvalo, o'ziga talabchan bo'lishga o'rgatish.

Agar odam maqsadni tushunmasa, uni oliy faoliyatga va go'zal orzularga undash foydasiz bo'lib qoladi.

Qoida: Talaba nimani xohlayotganligi haqida o'ylang, uning istaklariga tayaning, qiziqishi va moyilliklarini e'tiborga oling, niyatlardan foydalaning, xatti-harakatlari oqibatini ko'rsating, e'tiborli bo'lishga intilishni rag'batlantiring, g'ururini tan oling, muvaffaqiyatlarini qo'llab-quvvatlang, vaziyatlardan foydalaning, talabaga o'z hurmatini saqlashga imkoniyat bering, nafsoniyatiga tegmang, yutuqlarini ko'rsating, o'z shogirdlaringizni shuhrat qozonishiga erishing.

O'QITUVCHILARGA TAVSIYALAR

Inson tashqi ko'rinishi nimalarni bildirishi xususida muayyan qoidalar mavjud. Ularni o'rganish asosida yaxshi natijalarga erishish mumkin. Masalan qovushtirilgan qo'llar rad javobini anglatadi, deb hisoblanadi. Biroq hamma vaqt ham bunday emas. Bu, albatta, rad javobining alomati bo'lishi mumkin. Lekin u suhbatdoshning tortinchoqligi yoki o'ziga ishonmasligini ham bildirishi mumkin. Shuning uchun ham bu yerda har doim amal qiladigan mutloq qoida bo'lmaydi. Biroq munozara, siz qator belgilarga ko'ra, siz suhbatdoshingiz nima haqida o'ylayotganini bilib olishingiz mumkin. Mazkur soha eksperti Semi Maino hych narsa tasodifiy bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Har bir xatti-harakat o'z asosiga ega bo'ladi.

Pedagoglik kasbining xususiyatlari, uning umumiy va kasbiy madaniyati

Pedagoglik faoliyati jamiyatdagi funksiyalari bo'yicha va kasbiy sifat xususiyatlariga qarab hamda psixologik tomonlari bo'yicha yozuvchi, artist va olimlar tomoniga yaqin. Pedagog mehnatining xususiyatlari tabiatning eng buyuk in'omi bo'lgan insonni o'qitish va tarbiyalash uchun mo'ljallangan:

1. Pedagogning mehnat faoliyati o'sib kelayotgan yoshlarning insoniy xususiyatlarini shakllantirishdan iborat.

2. Pedagog faoliyatidagi mehnatning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda mehnat predmeti bo'lib hazrati inson hisoblanadi.

3. Pedagogik mehnat unga har tomonlama ta'sir etuvchi omillarni boshqaruvchi shaxsga bo'lgan ta'siridan iborat.

Bu mehnatda talabaga ta'sir etuvchi qurol bo'lib o'qituvchining shaxsi-uning bilimlari, mahorati, sezgirligi va erkinligi hisoblanadi. Pedagogik jarayonning maqsadi, nafaqat talabani tarbiyalash, o'qitishni tashkil qilishdan iborat bo'lmay, uning o'qitish uslublarini va ulardagi barcha munosabatlar tizimini aniqlashdan iborat.

Pedagogik mehnatning buyuk xususiyati shundan iboratki, unda mehnat boshdan-oyoq insonlar orasidagi o'zaro ta'sir jarayonidan iborat. Unda predmet inson, mehnat kuroli inson, mehnat mahsuli ham inson ya'ni pedagogik mehnatning maqsadi, masalasi, o'qitish va tarbiya uslublari shaxsiy munosabatlar shaklida amalga oshiriladi. Pedagogik mehnatning bu xususiyati odob, ahloq, hulk kabi tomonlarning yuqoriligini ta'minlaydi.

Pedagogning faoliyati har doim yuqori baholangan. Qadimgi yunon faylasufi **Aflotun** agar kosib yomon usta bo'lsa, bundan davlat juda katta narsa yo'qotmaydi - faqat xalq yomonroq kiyinadi, xolos, ammo agar yoshlar tarbiyachisi o'z vazifalarini yomon bajarsa, u holda mamlakatda nodon, johil, bilimsiz va ahmoqlar toifasi vujudga keladi, degan.

XVII asrda yashagan ilmiy pedagogikaning asoschilaridan biri - **Yan Amos Komenskiy** «o'qituvchilarga quyosh ostidagi eng yuqori vazifa yuklatilgan», degan edi.

Madaniyat atamasi lotincha bo'lib, u tuproqni ishlash ma'nosini bergan bo'lsa, hozirgi vaqtda esa, umumiy holda inson madaniyatni jamiyatni qayta qurish faoliyati va uning natijasidir, deb tushuniladi. Moddiy va ruhiy madaniyat jamiyat hayoti tavsifining katta qismidan iborat. Insonning o'zi esa yo'lni o'zlashtirib, mazkur jamiyatning o'ziga xos bo'lgan boyliklari, an'analari va madaniyatining usullari hamda ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonida shakllanadi. Shunday qilib, **inson umum insoniy madaniyatning vakili va taqdim etuvchisidan iborat.**

Fanda madaniyat mohiyatiga uch xil qarash tushuniladi: **aksiologik, faoliyatli va shaxsiy. Aksiologik qarashda** pedagogika va tarbiyadagi yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. **Faoliyatli qarash** pedagogik metodlar va vositalar mohiyatini amalga oshirishni tadbiiq etish imkonini beradi. **Individual-shaxsiy** rejada o'qituvchining pedagogik madaniyati uning kasbiy faoliyatidagi tavsifining mohiyatidan iborat, deb tushuniladi. Bunday qarash o'qituvchini umuminsoniy madaniyat va pedagogik boyliklarni, u orqali tarbiya va ta'limning madaniy boyliklarini bir avloddan ikkinchi avlodga tashuvchi vakili sifatidagi shaxs, deb qarash imkonini beradi. Pedagogik madaniyat umuminsoniy kabi, moddiy va ma'naviy shakllarda mavjud bo'ladi.

Pedagogik bilimlar, nazariyalar, konsepsiyalar, insoniyat va buyuk allomalar tomonidan to'plangan pedagogik tajriba hamda kasbiy-etikaviy normalar-me'yorlarning barchasi pedagogik madaniyatning ma'naviy-ruhiy boyligini tashkil etadi. Pedagogik madaniyatning moddiy boyligi o'qitish va tarbiya vositalaridir.

Yosh pedagogning umumiy madaniyati uning ijtimoiy-ahamiatli tavsiflarining kasbiy faoliyatda amalga oshgandagi yetukligini ifodalaydi. Madaniyat shaxsning rivojlanishi, uning ruhiy kuchlari va qobiliyatlarining amaliy faoliyatida amalga oshish darajasi va hokazo. Insonning madaniy rivojlanishi - bu uning bilimlari, ishonchlari, qobiliyatlari, hulqining muhit tomonidan rivojlanish jarayonidir.

Yosh pedagogning kasbiy madaniyati uning kasbiy faoliyat doirasidagi, uning shaxsiy sifati tavsifining mohiyati-tizimli ta'limidan iborat.

O'qituvchining pedagogik madaniyati tashkil topgan ko'rsatgichlar darajasiga va asosiy tizimli komponentlariga quyidagilar kiradi:

A) intellektual rivojlanish darajasi (eng avvalo, pedagogik tafakkurning rivojlanishi);

B) pedagogik faoliyatning har tomonlama tashkil topishi va darajasi;

V) asosiy kasbiy pedagogik etika, ma'naviy xarakter va odob madaniyati;

G) o'zaro munosabat madaniyati;

D) so'zlashuv madaniyati;

Ye) tashqi ko'rinish madaniyati va boshqalar.

Pedagogik fikrlash madaniyatiga pedagogik tahlil va sintez qobiliyatining rivojlanishi, fikrlashdagi tanqidiy kurash, mustaqillik, kenglik, epchillik, faollik, tezlik, kuzatuvchanlikning rivojlanishi, pedagogik xotira va boshqalar kiradi.

Pedagogik fikrlash madaniyati bo'lgan o'qituvchi tafakkuri - dunyoqarashining uch bosqichini o'z ichiga oladi: birinchisi metodologik dunyoqarashdagi pedagogik ishonchlar. Metodologik tafakkur o'qituvchiga o'zining kasbiy faoliyatiga to'g'ri qaray olishiga, gumanistik strategiyani ishlab chiqishiga imkon yaratadi.

Pedagogik tafakkurning ikkinchi bosqichi-taktikaviy dunyoqarash bo'lib, u o'qituvchiga pedagogik fikrlash, pedagogik jarayonning moddiylashuviga imkon yaratadi.

Uchinchi bosqichi umumiy pedagogik qonuniyatlarni, real pedagogik faoliyatning ulkan hodisasi bo'lib hisoblangan bo'lim-bo'limlarga tadbiiq qilishda namoyon bo'ladi. Bu tezkor fikrlashdir.

Bo'lajak o'qituvchining pedagogik madaniyat tuzilmasida uning odob-ahloq bo'limi muhim o'rin egallaydi. Bu pedagogik ishonch jarayonining shakllanishi, natijasi va o'qituvchining o'z qiziqishlarini ko'proq aniqlash jarayonidir. O'qituvchi, kasbiy muhitdan relaksin jarayonga, o'zining tutgan o'rnini yangilashga faol kirib borishi zarur. Pedagogik madaniyatning kasbiy faoliyatiga bog'liq tashkil etuvchisi pedagog tomonidan o'zining pedagogik qobiliyatlarining barcha spektrini bilib olganligini xarakterlaydi, bu esa pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining nishonasi,

pedagogik xatolarning oldini olish va nihoyat, pedagogik qobiliyat usullarini egallanganligidan iborat. Ma'naviy madaniyat yetuk bilimlarning nazariy darajasi holatida shakllanuvchi axloqiy bilimni o'z ichiga oladi. Bu kasbiy pedagogik etikadan iborat.

Pedagogik aloqa qilish madaniyati suhbatdoshni eshitish va eshita olishda, savollar bera olishda, aloqani amalga oshirib boshqani tushuna olishda, muloqotning qiyin holatlarini ko'ra olish va odamlardagi ta'sir holatini to'g'ri tahlil qila bilishda, muloqotga tayyorlanish va muloqotga bo'lgan xohishlarda ko'rinadi.

Pedagog uchun eng zaruri nutq madaniyatini egallashdir. O'qituvchining nutqi kundan-kunga o'quvchilar uchun ibratli bo'lib borib, ularning nutq madaniyatini shakllantirishga yordam berishi kerak. Nutqning grammatik to'g'riligi, uning leksik boyligi, yaxshi ifodalanganligi, obrazliligi, nutq texnikasini egallaganligi o'qituvchining turli xil kasbiy masalalarni sifatli yechishiga imkon beradi.

Pedagogning tashqi ko'rinish madaniyati, uning tashqi ko'rinishga moslik darajasi va pedagogik faoliyati bilan baholanadi. Keng fikrlilik, tartibli, odobli bosiqlik va o'zini - o'zi yaxshi boshqara olish kabilar pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli bo'lishiga olib keladi.

Pedagogning funksiyalari va bilish qobiliyati

Pedagogik funksiya - pedagogga kasbiy bilimlar va bilimdonlikdan foydalanishga ruxsat berilgan yo'nalish. Albatta, pedagogik harakatlar yo'naltiriladigan yo'nalishlar - bu o'qitish, bilim berish, tarbiyalash va o'quvchilarning ko'nikmalarini tashkil qilish va rivojlantirishdan iborat. Umuman olganda, o'qituvchining asosiy funksiyasi - o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish va rivojlantirish jarayonini boshqarishdan iborat.

Suqrot pedagoglarni "Fikrlar doyasi" deb atagan edi. Pedagogning mahorati shunda ko'rinadiki, u avvalo o'quv jarayonini shunday tashkil qiladiki, eng qiyin sharoitlarda ham talabalarning rivojlanishi, bilimlarga ega bo'lishiga erishadi. Haqiqiy o'qituvchi har bir talabani biladi, ruhiyatini tushunadi, uning ongiga yo'l topa oladi, fikr uyg'otib, uni to'lqinlantiradi.

O'qituvchi o'rgatuvchi emas, bilimni egallashga o'rgatuvchi, tarbiyalovchi emas-tarbiya jarayonini boshqarishga yo'naltiruvchidir.

O'qituvchining boshqarish funksiyasini aniqlashtirish maqsadida «Pedagogik loyiha», deb ataluvchi tushunchadan foydalanib, u orqali har qanday mo'ljallangan ish va uni oxiriga yetkazish tushuniladi: dars, dars soati, mavzuni yoki uning bo'limini o'rganish, olimpiada yoki maktab bayrami va boshqalar. Mazkur ishlarni pedagog boshqarishi zarur, agar u qancha noziklik, o'ylab va aql-bilan boshqarilsa, natijada shuncha kam vaqt sarflanadi va shuncha ko'p samaradorlikka erishiladi.

Pedagogning birinchi funksiyasi projekt-loyihalashning boshlanish bosqichida paydo bo'luvchi - maqsadni taxminlashdan iborat. Ma'lumki, **maqsad pedagogik faoliyatning tayanch omilidan iborat** va u ideal holatda **o'qituvchi va o'quvchilarning harakatini umumiy natijaga yo'naltiradi**; boshqaruv jarayonining

mohiyati ham shundan iboratki, unda barchaning maqsadlari birlashuvga yo'naltirilgan. O'rgatish jarayonini boshqarish, avvalo, o'quvchilarning bilimiga, ularning tayyorgarlik darajasi, imkoniyatlari, tarbiyalanganligi, rivojlanganligiga asoslanadi. Bunga **diagnostikalash** (grekcha diagnosis-bilib olish) deyiladi. Auditoriyadagilarning jismoniy va psixologik rivojlanganligi, aqliy va ruhiy tarbiyalanganligi maktab va oiladagi tarbiyalanganlik darajasini bilmasdan turib, to'g'ri maqsad qo'yish va unga erishish vositalarini amalga oshirish mumkin emas. U esa pedagogik holatni pedagog tomonidan oldindan yaxshi tahlil qilishni bilish zarurligini ko'rsatadi.

Diagnostikalash bilan bir qatorda prognoz qilish oldindan aytib berish (grekcha prognosis-oldindan ko'rish, pro- oldindan □ gnosis-bilish) mavjud. Bu holat o'qituvchidan o'z faoliyatining natijasini ko'ra bilishi orqali ifodalanadi

Natijada pedagog faoliyatining strategiyasi aniqlanadi va kutilgan miqdor va sifatda pedagogik xulosaga erishish bo'yicha baholashga imkon yaratadi. U o'qituvchining bilimdonligi va o'z faoliyatini aniq sharoitlarda ko'ra olishi asosida o'z faoliyatining strategiyasini aniqlash va pedagogik mahsulotning berilgan miqdorda va sifatda olish imkoniyatini baholay olishda foydalaniladi.

Har bir pedagogik rejaning oxirida o'qituvchi analitik tahlil o'tkazadi va darslarni barcha foydali va kamchilikli holatlarini tahlil qilib, yangi ishlarni yanada yaxshiroq bajarish yo'llarini qidiradi. Shunday qilib, o'qituvchilikning ko'p qirrali funksiyasi (yaxshi artist, analitik-tahlilchi, ilmiy izlanish olib boruvchi xodim) va boshqalar kabi murakkabdir.

O'qituvchining yuragidan chiquvchi issiq nurlar bilan planetamizdagi barcha insoniyat isitilgan. Bu dunyoning barcha iliqliklari: haqiqatlar, hikmatlar, yaxshiliklar, birodarlik, tinchlik undan uzluksiz tarqalib turadi.

Shuni esda tutish zarurki, o'qituvchi amaliy faoliyatining deyarli yarmi rasional texnologiya asosiga qurilgan. Uning ikkinchi yarmi-soatdan iborat. Shuning uchun pedagogga qo'yiladigan birinchi talab-quyidagi pedagogik qobiliyatlarning borligi:

Pedagogik bilishga o'qituvchining barcha harakatlarining majmuiga qarab, ular uning pedagogik faoliyatiga bog'liq bo'lgan, xususiyatlaridan va uning kasbiy fanlardan bilimdonligidan kelib chiqadi.

Pedagogning bilish qobiliyati:

- 1) o'qituvchiga xos bo'lgan bilimlarni o'qitish va tarbiya usullarini yangi pedagogik sharoitda ham o'tkaza olish;
- 2) har bir pedagogik holat uchun yangi yechimlarni topa bilish;
- 3) aniq pedagogik vaziyatlarda yangi pedagogik yechimlarni va ideallarni taklif eta olish hamda yangisini yechish usullarini topa olishi;

Pedagogik faoliyat stili - uslubi

O'qituvchining pedagogik faoliyati har bir boshqa faoliyat kabi o'zining aniq uslubiga ega bo'ladi. Faoliyat uslubi - to'la ma'noda usullar, holatlar, shakllarning

turg'un tizimidan iborat bo'lib, u har xil sharoitlarda ham mavjud bo'ladi. U faoliyat tuzilishiga bog'liq bo'lib, uning-subyektning shaxsiy-psixolog xususiyatiga bog'liq.

Pedagogning kasbiy potentsiali

Pedagogning chegaralangan sifati ahamiyatli bo'lmasdan, ularning majmui, to'la tizimi ahamiyatga ega bo'ladi. O'qituvchi mahoratining tizimi, xarakteri, yangi integrallashgan tushunchasi - **pedagogning kasbiy potentsialida** (PKP) o'z aksini topadi. Bunday ta'rifning ahamiyatli tomoni shundan iboratki, u o'ziga ko'plab turli rejali va turli darajali o'qituvchining tayyorgarlik va faoliyat aspektlarini birlashtiradi.

Kasbiy potentsial (lotincha potencia-umumlashgan qobiliyat, imkoniyat) o'qituvchining asosiy xarakteristikasidan iborat. U tabiiy va qabul qilingan-orttirilgan sifatlarning tizimli majmui bo'lib, u berilgan holatdagi o'z vazifalarini bajara olish imkoniyatidan iborat.

Kasbiy potentsial kasbiy bilimlar va qobiliyatlarning asosi bo'lib, pedagogning faol fikrlash, yaratish, harakat qilish, o'zining mo'ljallarini hayotga tatbiq etib, rejalashtirilgan natijalarga erisha olish qobiliyatidan iborat.

Kasbiy potentsialni tabiiy va kasbiy tayyorgarlik jarayonida to'plangan sifatlarning tizimi sifatida qarash mumkin:

PKP □ Ppdk □ PpkB □ Pmtkp □ Pafp

Bu yerda Ppdk-shaxsning tug'ma qobiliyatlaridan tashkil topgan **potentsialning doimiy (o'zgarmas) qismi**;


PpkB-pedagogning amaliy va kasbiy faoliyati hisobiga qabul qilinadigan potentsialning qisman o'zgaruvchan qismi.

Pmtkp-Oliy o'quv yurtidagi **maxsus** tayyorgarligi hisobiga qo'shiladigan potentsial qismi.

Pafp-pedagogning **amaliy faoliyatida** qabul qilinayotgan **potentsial** qismi.

PKP o'qituvchilar va ularning kasbiy faoliyatlaridagi katta yo'nalishlarini o'z ichiga olgan tizim qismlaridan iborat. Pedagogning kasbiy potentsial muammosi bilan ishlaydiganlar uchun ularni quyidagi ilmiy yo'nalishlarga ajratish mumkin .

«Kasbiy potentsial» tushunchasining umumiy strukturasi - tuzilishi yetarli darajada murakkab va ko'p qismlardan iborat. Bir tomondan, PKP o'zida pedagogik faoliyatga va faoliyatning haqiqiy holatiga moyilligini o'zida aks ettiruvchi nisbatni o'z ichiga oladi. Bunday qarashda qabul qilingan va tabiiy qobiliyatlarning kasbiy faoliyatlar o'rniga urg'u beriladi. Ikkinchi tomondan, PKP pedagogning kasbiy faoliyatga munosabatini ifodalaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, faqat mavjud mahoratning o'zi kasbiy faoliyatga yetarli emas. Uchinchidan, PKP o'z mehnatini kasbiy ixtisoslik talabi darajasida bo'lishni talab etadi. Nihoyat, to'rtinchidan, PKP-bu qabul qilingan sifatlarning konsentrasiyasidan ya'ni bilimlar, mahoratlar, ko'nikmalar, fikrlash usullari va faoliyatning tayyorgarlik jarayonida qabul qilingan sifatlardan iborat.



PKP ning eng yaqin **umumiy tushunchasi pedagogning kasbiy bilimdonligidir.** Kasbiy bilimdonlik bu fikrlashni bilish va kasbiy bilimdonlik bilan harakat qilishdan iborat.

PKP umumiy tuzilishining tashkil etuvchilariga intellektual, asoslangan, kommunikativ, ijodiy va o'z kasbiy qobiliyatlari kiradi.

Pedagogning kasbiy potensialini ideal pedagog bilan ifodalash ma'lum darajada osonlik tug'diradi. **Ideal pedagog**- professional pedagogning bir ko'rinishi bo'lib, u eng yuqori darajadagi fuqarolik, ishlab chiqarish va shaxsiy funksiyalarga ega bo'lgan shaxs. Ideal pedagog - bu tayyorgarlik bo'yicha eng yuqori solishtirish uchun etalon. Pedagogik potensialning ideal pedagog tushunchasi bo'yicha strukturasi (3-rasm)dan ko'rinib turibdiki, pedagogik sifat ketma-ketligi juda ko'p bo'lib, ularning ba'zilari zamon talabiga muvofiq ravishda o'zgarib turadi.

Yosh o'qituvchirning pedagogik faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi omillar:

- O'z fanini yaxshi bilmasligi.
- Moddiy rag'batlantirish yaxshi emasligi.
- O'quv-metodik va boshqa adabiyotlarning yetishmasligi.

- Mehnat sharoitidagi kamchiliklar.
- Oilaviy to'sqinliklar.
- Kasbiga qiziqmasligi.
- O'quvchilarning passivligi sababli darslar samaradorligining pastligi.
- O'quv xonasini jihozlanmasligi.
- Pedagogik va psixologik bilimlar yetishmasligi.
- Maktab ma'muriyatining salbiy ta'siri.
- Yetarli kompetensiyaga ega bo'lmagan "konservator" o'qituvchilarning salbiy ta'siri.
- Pedagogik stajning kamligi.

XULOSA

Prezidentimiz I.A.Karimov "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida ta'kidlaganlaridek, "O'quv jarayonida bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchi va domlalariga e'tiborimizni yanada oshirish, ta'lim tarbiya tizimini sifat jihatdan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi lozim". Vatanimiz va jamiyat uchun ijodiy fikrlay oladigan, madaniyatlar va o'z sohasini bilimdoni bo'lgan mutaxassislar zarur. Ayniqsa, mutaxassisdan o'z kasbining mahoratli ustoz bo'lish talab etiladi.

Yosh pedagog o'zining qarashlarini nazariy bahslar bilan emas, balki dars bilan tasdiqlash kerak, unda yetuk mutaxassis bo'lishi uchun uchta talab **-shaxsiylik, zamonaviylik, artistlikning** birligi bilan bog'liq fazilatlar shakllanishi lozim.

Yosh o'qituvchilarga kasbiy salohiyatlarini oshirishlarida quyidagi tavsiyalarga amal qilishlari zarur. Tashkiliy daqiqada o'quvchilarning tayyorgarliklarini sinchiklab kuzatish ,dars mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadni aniq va ravshan qilib uqtirish bilan boshlanishi, agar dars yangi materialini bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, uning mavzusi aytilishi, darsda rejada mo'ljallangan material o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi zarur.Ta'lim tizimida yosh avlodga ta'lim berish metodlarini tahlil etishga baholi qudrat harakat qilinishi kerak.

Haqiqiy o'qituvchi har bir talabani bilishi, ruhiyatini tushunishi, uning ongiga yo'l topa olishi, fikr uyg'otib, uni to'lqinlantirishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod yili" davlat dasturi - t. O'zbekiston, 2010.
2. Karmov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Sharq, 2008.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1998
4. Karmov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Sharq, 2008.
5. Kurbonov Sh.va boshkalar ."Barkamol avlod orzusi" T. 1999 yil.
6. Mirzayeva Sh.R. O'qitish uslubiyati va pedagogik texnologiyalar.T 2007. 7.
7. Mavlonova R., Turayeva O., Xolikberdiyev K. Pedagogika. T. 2001.
8. Gaybullayev N., Yodgorov R., Mamatkulova R., Toshmurodova K. Pedagogika. T. 2000.
9. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Karshi. 2000.
10. ToshDavTI – Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2002.
11. Saidaxmedov N. Va b. Yangi pedagogik texnologiya moxiyati va zamonaviy psixologiyasi. T. 1999.
12. Farberman B. L. Ilgor pedagogik texnologiyalar. T. Fan. 2000
13. Ishmuxamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. TDPU. T. 2004 .
14. J.G. Yo'ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T.O'kituvchi. 2004.
15. Mamedov K. va b. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. T.2003
16. Farberman. B. L. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari.T. 2002
17. Internet ma'lumotlari

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

www.tuit.uz

www.kitob.uz

www.reverat.arxiv.uz